



Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o'zbek tili
va adabiyoti universiteti



TASHENEV
UNIVERSITY



“Alisher Navoiy va XXI asr”

10-ULUSLARARO KONFERANSI

Toshkent-Shimkent, 2025-yil 6-fevral

“Әлішер Науаи және XXI ғасыр”


10-ХАЛЫҚАРАЛЫҚ КОНФЕРЕНЦИЯ

Ташкент-Шымкент, 6 ақпан 2025 жыл

“Alisher Navo'i and the 21st century”

10th INTERNATIONAL CONFERENCE

Tashkent-Shymkent, February 6, 2025



**Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
Qozog'iston Respublikasi Jumabek
Tashenev nomli universitet**

«ALISHER NAVOIY VA XXI ASR»

**mavzusidagi 10-uluslararo konferansi
materiallari**

2025-yil 6-fevral

Toshkent – Chimkent – 2025

UO'K: 821.161.1=512.133

KBK: 83.3 (50')

A 51

Mas'ul muharrirlar:

Shuhrat SIROJIDDINOV,

filologiya fanlari doktori, akademik
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili
va adabiyoti universiteti rektori

Kanat BAYBOLOV,

Jumabek Axmetuli Tashenev nomli universitet rektori,
texnika fanlari doktori, professor

Tahrir hay'ati:

Boqijon To'xliyev (O'zbekiston), Nurboy Jabborov (O'zbekiston), Parida Bayneeva (Qozog'iston), Kemal Yavuz Ataman (Turkiya), Yashar Qosim (Ozarbayjon), Islam Jemeney (Qozog'iston), Farhod Rahimiy (Eron), Sholpan Arzimbetova (Qozog'iston), Karomat Mullaxo'jayeva (O'zbekiston), Janna Botabaeva (Qozog'iston), Baxtiyor Fayzullayev (Tojikiston), Dilnavoz Yusupova (O'zbekiston), Nozliya Normurodova (O'zbekiston), Shahlo Naraliyeva (Qozog'iston), Ilyos Ismoilov (O'zbekiston), Azizullah Aral (Afg'oniston), Orzigul Hamroyeva (O'zbekiston), Ozoda Tojiboyeva (O'zbekiston)

Ushbu to'plamda "Alisher Navoiy va XXI asr" mavzusidagi 10-uluslararo konferansi materiallari jamlangan. To'plamda Alisher Navoiy adabiy-ilmiiy merosining mumtoz adabiyotimizdagi o'rni va bugungi kun uchun ahamiyati, shuningdek, shoir ijodiga bog'liq holda matnshunoslik va tilshunoslik muammolariga doir ilmiy maqolalar o'rin olgan. Navoiyshunoslikning bugungi holati va istiqboli borasida muayyan tasavvur berishi uning ahamiyatini belgilaydigan omillardan biridir. Kitob filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistrantlar va bakalavr talabalari hamda keng o'quvchilar ommasiga mo'ljallangan.

Mualliflar qarashi va asarlar nomlaridagi imlo tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.

**Әлішер Науаи атындағы Ташкент
мемлекеттік өзбек тілі мен әдебиеті университеті**

**Қазақстан Республикасы Жұмабек
Тәшенев атындағы университет**

«ӘЛІШЕР НАУАИ ЖӘНЕ XXI ҒАСЫР»

**тақырыбындағы 10-халықаралық
конференция материалдары**

2025 жыл 6 ақпан

Ташкент – Шымкент – 2025

O'ZARO TA'SIR, IJODIY MUSHTARAKLIK VA O'ZIGA XOSLIK

Yaqubov Islomjon Ahmedjonovich

ToshDO'TAU professori, filologiya fanlari doktori, O'zbekiston

E mail: islamjon.yakubov.61@mail.ru

10.52773/tsuull.conf.navoiy.2025/XGHK3987

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Oybekning "Navoiy", Barot Boyqobilovning "Navoiynoma", Omon Muxtorning "Navoiy va rassom Abulxayr" asarlari misolida bugungi o'zbek nasrida Jomiy va Navoiy obrazlari badiiy talqinlari o'rganilgan. Jomiy siymosining ijtimoiy-tarixiy voqelik, tarixiy-madaniy hayot va adabiy jarayon fonidagi badiiy talqinlari orqali ulug' mutafakkirning hazrat Alisher Navoiy bilan ustoz, do'st va ijodiy hamfikir sifatidagi munosabatlari tahlil va tadqiq etilgan. Xalqlar do'stligi tarixi, o'zaro ta'sir, ijodiy mushtaraklik va o'ziga xoslik singari muammolar xususida muayyan nazariy umumlashmalar chiqarilgan.*

Kalit so'zlar. *Roman, adabiy qahramon, poetik ifoda, ruhiy kechinma, o'zaro ta'sir, ijodiy mushtaraklik, o'ziga xoslik, she'riy roman, roman-dilogiya*

INTERACTION, CREATIVE COMMUNITY AND INDIVIDUALITY

Abstract. *This article analyzes the artistic representations of the figures of Jami and Navoi in modern Uzbek prose, with a focus on the works Navoi by Oybek, Navoinom by Barat Baykabilov, and Navoi and the Artist Abulkhair by Aman Mukhtar. The study examines how the image of Jami is portrayed within the context of socio-historical realities, cultural life, and the literary landscape, exploring his relationship with the great thinker Hazrat Alisher Navoi as a teacher, friend, and creative collaborator. The article offers theoretical generalizations regarding the historical and cultural significance of their friendship, their mutual influence, and their shared creative community, highlighting the uniqueness of their literary and intellectual bond.*

Keywords: *Novel, literary hero, poetic utterance, spiritual experience, interaction, creative community, uniqueness, poetic novel, novel-dilogy.*

Abdurahmon Jomiy ilm-fanning turli sohalarini teran bilgan ulug' olim, bilimdon madaniyat arbobi, shoir va dostonnavis bo'lish barobarida serqirra hamda murakkab ijodida insonparvarlikni yoqlab, uning ziddi bo'lgan g'ayriinsoniy intilishlarni qoralagan. Uning yuksak mahorat bilan yaratilgan asarlari ta'siri o'z davrida hamda zamonlar osha elga manzur bo'lib kelgan va shunday bo'lib qolajak. Mana shu yorqin siymo bilan buyuk shoir, g'azal mulkning sultoni Alisher Navoiy g'oyat yaqin do'st bo'lgan. Oralaridagi yigirma yetti yosh farq ham ularning bir-birlarini g'oyat hurmat qilishlariga monelik qilmagan. Ikkala alloma ko'plab ijtimoiy-siyosiy, adabiy-falsafiy, estetik masalalarda hamfikir, sirdosh va maslahatdosh, mashaqqatli ijodda esa ko'makdosh bo'lishgan. Bir-birlariga nisbatan ham ustozlik, ham shogirdlik burchini o'tash barobarida hamkorlikda el-ulus dardini chekkanlar.

Har ikkala shoirning asosiy mavzulari xalqparvarlik, insonparvarlik, gumanizm, odamiylikni ulug'lash, yovuzlik va jaholatni qoralash, yaxshilik va adolatni madh etish, insoniy muhabbatni kuylash, inson his-tuyg'ularini ifodalashdan iboratdir. Shuning uchun ham Navoiy ijod masalalari, ijtimoiy-siyosiy muammolar yuzasidan Jomiyga maslahat bilan murojaat qilsa, Jomiy o'z bitiglarini Navoiyga o'qish uchun berar, ijodi va faoliyatini sinchkovlik bilan kuzatib borar edi. Jomiy o'gitlaridan Navoiy astoydil sevinib, ularni bajonu dil qabul qilganidek, Navoiyning istak va takliflaridan Jomiy

mamnun bo'lgan. Bu hol nafaqat makon va zamon birligi, balki estetik ideallar mushtarakligi bilan ham izohlanadi (Yakubov I. 65 b.).

Shuning uchun bo'lsa kerak, Oybekning "Navoiy" romani, Barot Boyqobilovning "Navoiynoma" she'riy romani, Omon Muxtorning "Navoiy va rassom Abulxayr" roman-dilogiyasida XV asr hayoti, xalq orzu-intilishlari Navoiy obrazi bilan bog'liq tarixiy-hayotiy voqealar tasvirida davr ruhi va qahramon kechinmalarini ifodalash maqsadida u yoki bu darajada Abdurahmon Jomiy haqida ham to'xtab o'tiladi. Bizningcha, yuqorida sanab o'tilgan romanlarda aks etgan Abdurahmon Jomiy obrazini qiyosiy-tarixiy yo'sinda kuzatish maqsadga muvofiqdir.

Oybekning "Navoiy" romanida bosh qahramon biografiyasi obyektiv-tarixiy jarayon oqimi bilan bog'lab tasvirlanadi. Garchand, nosir davr mohiyati va ruhini berishda ma'rifat va jaholat kurashini keskin qutblantirib ifodalagan, o'zining tomonlardan birini yoqlashini yashirmagan bo'lsa-da, qahramonlar xarakterini ularning idealiga muvofiq tarzda dinamik rivojlantira olgan.

Romanning birinchi, o'n ikkinchi, o'n oltinchi, yigirma ikkinchi, yigirma uchinchi va o'ttiz birinchi boblarida Jomiy xususida so'z boradi. Romanning birinchi bobida kamtarin va oliyjanob kishi, san'at ishtiyoqmandi, xalvofurush Mavlono Turobiy do'konchasida Hirotning "Gavharshod" madrasasi mullavachchalari: Zayniddin va Sultonmurod davrasida Abdurahmon Jomiy eslanadi. Ustoz g'azallarining kitobxonlar tomonidan sevib o'qilishi, ayniqsa, so'fiyona g'azallarining mashhurligi Hirotning shoirlar yurti ekanligini tasdiqlashga xizmat qiladi. Ana shu shoirlar yurtiga Samarqanddan Alisher Navoiyning tashrif buyurishi romanda xabar tarzida berilsa-da, mazkur tashrif qalam ahli doirasida xushnudlik bilan qabul qilinadi.

Romanning o'n ikkinchi bobida Majdiddin parvonachi va Nizomulmulk kirdikorlaridan bezgan "yarani avj oldirmasdan kesib tashlash" haqidagi maslahatlari Husayn Boyqaro tomonidan loqayd qabul qilinib, paysalga solinganidan ruhan ezilgan Navoiy Sa'diddin Qoshg'oriy mozorida maskan tutgan dongdor shayx huzuriga boradi. Oltmish yoshlarga kirgan bo'lsa-da, hali tetik Jomiy ko'zlaridagi donishmandlik, muomalasidagi samimiyat, yuz ifodasidagi shodlik, xarakteriga xos kamtarin-kamsuqumlik, zohiriy oddiylik va botiniy ma'naviy qudrat ishonarli chiziladi. Bir-birining diydoriga mushtoq ko'ngillar talpinishi ro'yobi uchun tez-tez imkon yo'qligidan uzrxohlik qilgan Navoiyni xijolatdan qutqarmoqchi bo'lgan Jomiy: "Uzringizni tangri ham qabul qilur, nainki, biz kabi zarrai xok! Elga xolisanlillo xizmat qilmoq insoni komilning ishidir. Bu nav zahmat-mashaqqatlar aslida farog'atdir" (Oybek. 165 b.) – deydi. Navoiy mamlakatda ro'y berayotgan tartibsizliklardan, haqsizliklardan ranjiganida ustoz: "Sizning elga muhabbatingizning toza gullarini ko'rmoqdamiz... Endi el-ulusga farovon mevalarni ko'rmoq nasib bo'lsin. Har nav mushkilot bo'lsa, podshohga aytmoq lozim", (Oybek. 165 b.) – deydi.

Keltirilgan parcha Jomiyning e'tiqodi, komil inson va davlatni boshqarish haqidagi konsepsiyasini ifodalashi, suhbatdoshini ruhlantira bilishi, ma'naviy qudratini yuqtira olishini izohlashi jihatidan xarakterlidir. Zero, shaxsiyatlardagi ma'naviy kuchning boyligi bu ikki shoirni o'zaro bog'lagan rishtadir. Suhbatning jonli, iliq va samimiy kechishi ham shundandir. Oybek ifoda badiiyatiga ham alohida e'tibor bilan qaraydi. "Shoirlarning falsafiy suhbatlari ertakday jonli, rangdor oqardi" (Oybek. 165 b.) – deb yozadi nosir.

Ma'lumki, Jomiy Navoiyning o'zbekcha:

Ochmagay erding jamoling olam aro koshki,

Solmag'ay erding bari olamda g'avg'o koshki,-
matla'i bilan boshlanuvchi g'azaliga nazira sifatida shu qofiya, shu radif va shu vaznda
forscha ushbu matla'i bilan g'azal yaratgan:

Didame diydori on dildori ra'no koshki,

Dilda ravshan kardame az xoki on po koshki.

Oybek oq ko'ngil Jomiyning xolis bir shayxgina emas, shogirdlariga mehribon
ustoz, o'zbek tiliga hurmati yuksak ziyoli, Navoiyning shoirlik iqtidoriga ishongan
ma'rifatparvar ekanligini tasvirlashda bunday tarixiy dalillardan o'rinli foydalanadi. Bu
g'azalni Navoiy nazaridan o'tkazish, unga manzur qilish tilagidagi Jomiy holati
tasviriga e'tibor beraylik: " – Mir, siz ko'ngil daryoyingizdan bir durri bebaho
chiqaribsiz, xalq orasida bisyor shuhratga sazavor bo'libdi. Uni biz ham tatabbu etdik
va bu uslubda bir nima yozmoqqa harakat qildik. Ko'ring, shoyad maqbul bo'lg'ay"
(Oybek.166 b.) – deb Navoiyni ortiqcha urintirmaslik tilagida ataylab ko'chirib qo'ygan
nusxasini taqdim etgan Jomiy batartibligi ham amaliy saboq vazifasini o'taydi. Oybek
masalaning ana shu jihatinigina e'tiborda tutmay, Jomiy nutqini mumtoz nasr uslubiga
muvofiqlashtirishga ham alohida ahamiyat bilan qaragan. O'z navbatida ustoz Jomiy
Navoiyning tarixda o'tgan mashhur shayxlarning hayotlari, fikrlari, maslamlari va
ularga doir afsonalarni to'plab, alohida asar yozish haqidagi taklifini mamnuniyat bilan
qabul qiladi. Shubhasiz, bu o'rinda so'z "Nafohat ul-uns" haqida boradi. Tasavvuf
tarixini o'rganishda bugungi kunda ham muhim ahamiyat kasb etuvchi mazkur
asarning Navoiy tomonidan ayrim to'ldirishlar bilan "Nasoyim ul-muhabbat" nomida
turkiy tilga tarjima qilinganligi ham har ikkala shoirning dilida undagi g'oyalar ko'p
vaqtlar jo bo'lganligini ko'rsatadi. Taassufki, bu muloqot romanda jonli dialoglar orqali
emas, balki muallif bayoni vositasida shunchaki axborot tarzida beriladi.

Asarning o'n oltinchi bobida Marvga podshoh oldiga jo'nayotgan Navoiy
do'stlari, yaqinlaridan ajarayotganidan ich-ichidan achinib, ularning iltifotu mehridan
ruhi yengil tortib, safar oldidan xayrlashish uchun Jomiy huzuriga boradi. Ustoz
mazkur safardan xabar topgan, devondagi bo'g'iq muhitda Navoiyning
qiynalayotganligini his etsa ham, qalbidagi so'fiyona tabiati, butun e'tiqodi bilan
haqiqat va adolat g'alabasiga ishonadi. Shu bois ham Navoiyni xalq va davlat
manfaatlari yo'lida ishlash, iqtidoriyu zakosini shunga sarflashga undaydi. Uning
ko'nglidagi sukut va xilvatga bo'lgan ishtiyoqni ma'qullamaydi. "Amri podshoh, itoat
etmoq bir vazifadir!... Ra'iyatning baxt va saodatiga xizmat qilmoq - xudo yo'liga
xizmat bilan barobardir... Inshollo haqiqat dushmanlarini, zulmkorlarni mag'lub
qilursiz. Biz ham bu yo'lning mudofaasiga hamisha tayyor tururmiz" (Oybek. 211-212
b.)

Zero, u qalb va tafakkur erkinligi muqaddas ekanligini teran anglar edi.
Navoiyning tabiatan darveshsifatligi uni siyosat maydonidagi muammolardan
charchatishi, ma'naviy zavqlarga to'la o'z muhitiga ko'ngli talpinishi, ruhiyatida kuchli
chayqalishlarni vujudga keltirishini bilardi. Shunga qaramasdan, ibodatdan adolatni
afzal bilib, davr jarohatlariga malham bo'luvchi, shifo bag'ishlovchi kishi sifatida
Navoiyni alohida hurmat va muhabbatga sazavor deb biladi.

Jomiy unga "Bahr ul- Abror " qasidasini beradi. Navoiy bir gal ustoz huzurida
Xusrav Hindiyni "Daryoyi Abror" asarini haddan ziyod maqtab xato qilganligini
tushunib yetadi. Vaholanki, o'shanda sukut qilgan Jomiy kamtarinlik tufayligina fikr
bildirmagan ekan. Romanda o'sha voqea sabab yangi bir asar yaratilgani,
hijolatparazlik va adabiy ta'sir natijasida Navoiyning uchqur o'y-xayollari, ko'nglida

tug'ilgan "Tuhfat ul-afkor"ning fikr cho'g'i, baytlarning shoir imon-e'tiqodiga muvofiqligi jarayonlariga alohida diqqat qaratiladi. Bu esa Oybek har ikkala shoir kayfiyati, ruhining mohiyatini tushunganligini ko'rsatadi.

Marv yo'lida Jomiyga yozilgan maktubda "Bahr ul-Abror" yuqori taqdirlanadi. Ilk bayt maktubga ilova qilinib, yangi asar yozish qarori haqida ustoz fikrini bilishga ishtiyoqmandligini qayd etgan Navoiy nomani darhol Hirotga jo'natadi (Oybek. 215 b.)

Romanning yigirma ikkinchi bobida voqealar Astrobodga ko'chadi. Oybek Navoiy "Xazoyin ul-maoniy" devoni xronologiyasining nisbiy ekanligi haqidagi fikrni ilgari suradi. Uning bu fikrlari keyinchalik Hamid Sulaymonovning tekstologik tekshirishlari asosida tasdiqlandi. Muhimi, romanda umrni to'rt faslga bo'lib, yozilgan bitiklarni shunga muvofiq tartiblashni hazrat Jomiy g'oyat maqbul ko'rganligi haqida so'z boradi (Oybek. 273 b.) Qahramon tilidan aytilgan bu fikr tarixiy haqiqatga to'la mos keladi. Hirotidan yiroqda dilda anduh bilan yashayotganiga qaramay, Navoiy Jomiyning ko'rsatmalariga to'la amal qiladi. Umrining har lahzasidan unumli foydalanadi. Ijodga sa'y-harakat qilishdan charchamaydi, iste'dodlarni avaylab tarbiyalaydi.

Asarning yigirma uchinchi bobida Majdiddin, Shahobiddin kabi johil kishilar ilm-san'at ahli, jumladan, hazrat Jomiyning Navoiyga chuqur hurmat bilan bog'langanligidan tashvishga tushadilar (Oybek. 297 b.) Chunki Navoiy xalq o'rtasidagi obro'-e'tiborining ortib borishi uning Astroboddan markazga qaytishiga bois bo'lishi mumkin edi.

Oybek Navoiy tabiatining sonsiz jilvalarini kitobxon ko'z o'ngida tajassumlantirishga harakat qilar ekan, o'ttiz birinchi bobda fikr quvvati butkul ijodga yo'naltirilgan shoir qiyofasini chizadi. Ayniqsa, bemor Jomiyning xasta holidan ko'ngli allanechuk buzilgan, tashvishli sezgilar zalvori ostida qiynalayotgan holatlarga e'tibor qaratilishi xarakterlidir. U ustoz Jomiy hayotining so'nggi damlarida ham huzurida bo'lib, uning o'g'li Ziyoddin Yusuf boshini ota mehribonchiligi bilan silaydi. Sohibi azo sifatida aziz do'sti, mehribon hamdardi uchun motam tutadi. Dafn marosimini katta tantana bilan o'tkazib, o'limning yettinchi kuni minglab xalqqqa xotira oshi beradi. "Xamsat ul-mutahayyirin" (Alisher Navoiy. T.15. 7-89 b.) da bu ma'raka do'sti vafotiga yil to'lishi munosabati bilan o'tkazilganligi qayd qilingan.

Shubhasiz, badiiy haqiqat tarixiy haqiqat bilan aynan muvofiq bo'lishini talab qilish to'g'ri emas. Muhimi, Oybek Navoiyning ustoz va do'st o'limini chuqur qayg'u-iztirob bilan qarshilagani, Jomiy vafotidan keyin qalbida qandaydir tanholik, o'ksizlik, sezganligini anglagan. Asarda bu kayfiyat-holatlarni ishonchli tasvirlay olgan (Oybek. 267-268 b.)

"Navoiy" romanining o'ttiz oltinchi bobida "Muhokamat ul-lug'atayn" (Alisher Navoiy. T.16. 7-43 b.) asarini yozayotgan shoir xayolan ko'z o'ngida ustoz Jomiy ni jonlantiradi. Mavlono Jomiy o'zbek shoiriga ofarin o'qib, uning yelkasini qoqadi. Oybek bu lahza tasvirini berar ekan, shoirona ifodadan tiyila olmaydi. "Yuragida shodlik dengizi chayqalardi", - deb yozadi. (Oybek. 234 b.)

Xuroson va Movaraunnahr tarixida o'chmas iz qoldirgan tarixiy shaxslar hayoti va ijodi haqida asar yaratish ezgu niyati bilan qo'lga qalam olgan Barot Boyqobilov uzoq izlanishlar, kuzatishlardan keyin 1981-1992 yillarda "Notinch Xuroson" (1985), "Shukuhli karvon" (1981), "Sokin Xuroson" (1992), "Qonli Xuroson" (1992) asarlarini o'z ichiga olgan "Navoiynoma" (1981-1992) she'riy romanini chop ettirdi.

She'riy romanda Sharafiddin Ali Yazdiy, Mavlono Lutfiy, Mirzo Ulug'bek, Abdurahmon Jomiy, Behzod, Pahlavon Muhammad, Said Hasan Ardasher va boshqa ilm-fan, adabiyot va san'at namoyandalarining obrazlarini uchratamiz. "Sokin Xuroson"da Navoiyning "Xamsa" yozish istagini Jomiyga aytishi, ustozning bu niyatni ma'qullashi haqida so'z boradi. Shuningdek, Said Hasan Ardasher vafoti munosabati bilan beruxsat Hirotga kelgan Navoiy shoh istagiga binoan tezda Astrobodga qaytadi. Safar oldidan u Jomiy bilan uchrashib, xayrlashadi. Romanda og'ir bemor Jomiyning qazo qilishi, Navoiy uning qabri ustiga maqbara qurdirib, "Xamsat ul-mutahayyirin"ni yozish voqealari qayd qilinadi.

Bizningcha, Barot Boyqobilov she'riy romanda jonli va hayotiy bo'lgan to'laqonli obrazlar yarata olmaydi. Asar syujetida muallifning da'vati bilangina harakat qiluvchi Jomiy obrazidagina emas, aksariyat qahramonlarda tabiiy dinamika taqchilligi seziladi. Asarda obrazlar harakati va kechinmalarini bayon qilish kuchli. Talqin uyg'unligiga erisha olmaslik ya'ni estetik tamoyilga amal qilmaslik, romaniy tafakkur miqyosining yetarlicha emasligi yaqqol seziladi. Unda ijodkorning sof hayotiy, hissiy taassurotlari yetishmaydi. Buning oqibatida, obrazlar qalbida kechgan iztirobli tuyg'u-tug'yonlar, kurash – ruhiy psixologizm yetarlicha aks etmaydi. Obrazlar romanda tarixiy shaxs sifatidagina harakat qilishadi. Yana ham to'g'rirog'i shunchaki qayd etiladi, asarlari mazmuni sharhlanadi, xolos.

Demak, Barot Boyqobilov Navoiy va Jomiy o'rtasidagi ma'naviy-ruhiy yaqinlikni ham, Jomiyning ijtimoiy-adabiy hayotdagi o'rnini ham yetarlicha aks ettira olmaydi. Bir so'z bilan aytganda, Jomiy obrazining yuksak badiiy umumlashmasini yarata olmaydi.

"Navoiy va rassom Abulxayr" roman-dilogiyasi Omon Muxtorning Alisher Navoiyni qanday tushinish, tasavvur etish va anglash haqidagi yangicha kuzatish va izlanishlari asosiga qurilgan. Bosh qahramonni shoirning ijodi orqali yaratishni ko'zlagan muxtasar roman romantik va realistik motivlar bag'ridan shaxsiy individual va ijtimoiy muammolarga javob izlaydi. Ijod psixologiyasiga ahamiyat qaratib, tarixiylik va badiiyatni tushuntira oladi. Ana shu tanlangan uslubga binoan asosiy e'tibor Alisher Navoiy va Husayn Boyqaro munosabatlariga qaratiladi.

Biroq romanda Navoiyning o'y-xayollari tabiiyligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilgan. Ulug' shoir Jomiydek beg'araz, beminnat, aziz, jo'mard, ko'ngli pok inson bilan bo'lgan suhbat-muloqotlarini ham xotirlaydi. Taassufki, tasvirning ba'zi o'rinlarida bayonchilik yetakchilik qiladi.

Ko'rinadiki, o'zbek badiiy nasrida Abdurahmon Jomiy obrazini mustaqil asar doirasida yaratishga intilish bo'lmagan. Makon va zamon birligi, estetik ideallaridagi mushtaraklik, insoniy mehr-muhabbat bir-biriga uzviy bog'laganligi uchun Navoiy haqida yaratilgan romanlardagina Jomiy obraziga qisman murojaat qilingan.

Kuzatilgan uchta asar turli avlodga, har xil iqtidor va salohiyatga ega bo'lgan adiblar tomonidan XX asrning 50-yillaridan XXI asr boshlarigacha bo'lgan ellik yetti yillik davrda dunyo yuzini ko'rgan. Shu boisdan ham ularga bir xil mezonlardan yondoshib bo'lmaydi. Qolaversa, har bitta romanning ko'zlagan maqsadi, uslubi ham har xildir.

Biroq har ikkala shoir kayfiyati, ruhining mohiyatini tushinish, ishonarli ifodalashda Oybek yuksak mavqeda turishini e'tirof etishga to'g'ri keladi. U o'z davri ijtimoiy-adabiy talablariga muvofiq romanda ijtimoiy muammolarni birmuncha qabariq tasvirlasa-da, xarakterlar dinamikasining estetik ideal mohiyatiga mutanosibligini nazardan qochirmagan. Aynan o'sha tabiiy dinamika – obrazlarning

jonli harakati B.Boyqobilov romanida yetishmaydi. Teran his qilmasdan, yurakdan kechirmasdan asar yozish na tafakkur miqyosini yetarlicha ta'minlay oladi, na ruhiy psixologizmni yuzaga chiqaradi. Bayonchilik tarixiy qayd qilish sari yetaklovchi hissiy – emotsional taassurot uyg'otmaydigan qusurlardan biridir.

Shubhasiz, Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy ijodiy hamkorligi, samimiy do'stona munosabatlari alohida badiiy asarlarga mavzu bo'la oladi. Ular asarlaridagi umuminsoniylikka yo'g'rilgan gumanizm ko'plab ijodkorlar qalbiga ilhom bag'ishlagan.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 20 tomlik. T.15. – T.: Fan, 1999
2. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 20 tomlik. T.16. – T.: Fan, 2000
3. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 20 tomlik. T.17. Nasoyim ul-muhabbat. – T.: Fan, 2001
4. Oybek. Navoiy. Roman. – T.: O'qituvchi, 1985.
5. Boyqobilov B. Notinch Xuroson. T., 1985; Shukuhli karvon. – T., 1981; Sokin Xuroson. T., 1992; Qonli Xuroson. T., 1992.
6. Omon Muxtor. Navoiy va rassom Abulxayr. – Toshkent. "ShARQ" NMAK Bosh tahririyati, 2006.
7. Yakubov I. O'zbek romani tadriji. – T.: Fan va texnologiya, 2006
8. Yakubov I. Mustaqillik davri o'zbek romanlari poetikasi: filol. fanlari dok... diss. – T., 2018. – 248 b.
9. Matyokubova T. Philosophical-Aesthetic Conception: Community And Individuality // Texas Journal of Multidisciplinary Studies. 2024. № 29. – Pp. 120-122.
10. Matyokubova T. The Expression Of The Poet's Feelings In Gafur Gulam's Poetry // American Journal of Advanced Scientific Research. 2024. № 1. – Pp. 62-64.

ALISHER NAVOIYNING NABOTOT VA HAYVONOT OLAMIGA MUNOSABATI

Hayitov Shavkat Ahmadovich,

filologiya fanlari doktori,

BuxDU o'zbek tili va adabiyoti kafedrasasi professori

Shoyimova Gulshod Shoyim qizi,

BuxDU o'zbek tili va adabiyoti kafedrasasi mustaqil izlanuvchisi

10.52773/tsuull.conf.navoiy.2025/CMGT1936

Annotatsiya: Hayot, Istiqlol insonni yangicha fikrlashga undamoqda. Ona sayyoramiz muhofazasi istiqbollarini belgilashda faqat tabiiy fanlarga emas, ijtimoiy fanlar ham ishtirok etishi zarur. Zero, madaniy-tarixiy qadriyatlarini chuqur anglagan insongina tabiatga, hayvonot va nabotot olamiga bepisand bo'lmaydi. Oqibatini o'ylamasdan, ko'r-ko'rona ish tutmaydi. Saxiy tabiat ne'matlaridan oqilona foydalanish yo'llarini izlab topadi.

Kalit so'zlar: Tabiat, tuproq, suv va havo, bog', Alisher Navoiy, Husayn Boyqaro, "Jahonoro" bog'i, sarv nixoli, bir yuz to'rt tup, dasht, kushlar, bo'ri, kiyik, bulbul.

ALISHER NAVAI'S ATTITUDE TO THE WORLD OF PLANTS AND FAUNA

Abstract. This article examines how the concepts of life and independence inspire a shift in human thought, emphasizing the importance of both natural and social sciences in shaping the future of environmental preservation. It argues that individuals who possess a deep understanding of cultural and historical values are more likely to approach nature with

MUNDARIJA CONTENTS	
Shuhrat SIROJIDDINOV. Turkiy dunyo hamkorligining mustahkam asosi Туркі әлем ынтымақтастығының мықты негізі	7
Қанат БАЙБОЛОВ. Екі халық арасындағы бауырлық пен достық рәмізі Ikki xalq qardoshligi va do'stligi simvoli	11
I SHO'BA. ALISHER NAVOIY ADABIY MEROSINING JAHON TAMADDUNIDA TUTGAN O'RNI SECTION I. THE PLACE OF ALISHER NAVAII'S LITERARY HERITAGE IN WORLD CIVILIZATION	
Boqijon TO'XLIYEV. Nasimiy va Navoiy nazmi – badiiy tafakkurning yangi bazmi	15
Islam JEMENEY. Әлішер Навои	23
Yashar QOSIM. Dohiy Alisher Navoiyning ulug' izdoshi (Muhammad Fuzuliy sheiriyatida poetik in'ikos tarzining o'ziga xosligi)	35
Qodirjon ERGASHEV. Renessans adabiyotida etologik janr taraqqiyoti	42
Əlimuxtar MUXTAROV. Nizami Gencevi ve Alishir Navai'nin tür ruhu eserlerinin ve araştırmacılarının gözü ile	47
Roviyajon ABDULLAYEVA. Alisher Navoiy fenomeni yoxud Navoiy ijodining olamshumul ahamiyati	52
Насриддин НАЗАРОВ. Гуманизм и креативность в творчестве Наваи как фактор обеспечения связей между народами Евразии	60
Burobiya RAJABOVA. O'zbek navoiyshunoslari Jomiy haqida	67
Karomat MULLAXO'JAYEVA. Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy g'azallarida Yusuf (a. s.) siymosining badiiy talqinlari	77
Tozagul MATYOQUBOVA. Sharq adabiyotining yetuk tadqiqotchisi	82
Nosir JO'RABOYEV. Ikki turkman hukmdori ijodi va Alisher Navoiy	87
Молдасанов Е.М., АБДУВАЛИТОВ Н.Б. Әлем әдебиетінің асқар шыңы (Әлішер Науаидың 584 жылдығына орай)	95
Hulkar HAMROYEVA. Alisher Navoiy ijodida san'at talqini	99
Злиха ЖАНТАСОВА. Шығыс әдебиетінің қазақ фольклорындағы көрінісі	103
Sherxon QORAYEV. Alisher Navoiy Badaxshon shohi va shoir Sulton Muhammad La'liy ijodi tadqiqotchisi (Navoiy va uning zamondoshlari tazkiralari ma'lumotlari asosida)	109
Ahmad AKHLAQUE, Asror Allayarov. Alisher Navoi's creative works: a scientific exploration	115

Fayzulla ISKANDAROV, Dostonjon Tojiev. “Alisher Navoi international award”: establishment and historical significance for the turkic world	118
Diyora ABDUJALILOVA. Alisher Navoiy va Yahyobey Toshlijali dostonlarida shayx va avliyolar timsoli	124
Orifjon OLIMJANOV. Alisher Navoiy va Lorendeli Hamdiy “Layli va Majnun” dostonlari kompozitsiyasiga doir	131
II SHO‘BA. NAVOIY NAZMIY, NASRIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI SECTION II. ISSUES OF STUDYING NAVAIY'S POETRY, PROSE AND SCIENTIFIC HERITAGE	
Nurboy JABBOROV. Alisher Navoiy “Tarixi anbiyo va hukamo” asarining siyarnoma turkumida tutgan o‘rni	136
Nusratullo JUMAXO‘JA. Navoiyning yigitlik lirikasiga mansub mustazodi	149
Maqsud ASADOV. Alisher Navoiy “Tanbeh”larining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari (“Mahbub ul-qulub” asari misolida)	155
Dr. Kemal Yavuz ATAMAN. Ali Şir Nevaî beyitlerinde kulluk şuuru	160
Zuhriddin ISOMIDDINOV. Navoiyning “qaychi” g‘azali	165
Baxtiyor FAYZULLOYEV. Qo‘qon adabiy muhitida Navoiyga izdoshlik	170
Iqboloy ADIZOVA. Adabiy ta’sir va poetik tafakkurning yangilanishi	177
Nafas SHODMONOV, G‘iyosiddin SHODMONOV. Olti dostonida Odam Ato timsoli talqini	185
Faridaxon KARIMOVA. Xorazm adabiy muhitida debochanavislik an’analari	193
Islomjon YAQUBOV. O‘zaro ta’sir, ijodiy mushtaraklik va o‘ziga xoslik	200
Shavkat HAYITOV, Gulshod SHOYIMOVA. Alisher Navoiyning nabotot va hayvonot olamiga munosabati	205
Obidjon KARIMOV. Alisher Navoiy irfoniy olamining yangicha talqini	212
Gulbahor ASHUROVA. O‘zbek ayol shoiralari ijodida Alisher Navoiy obrazi tasvirlari	216
Qo‘ldosh PARDAYEV. Navoiy g‘azallariga Muqimiyning nazira va taxmislari	221
Ilyos ISMOILOV. Abror hayrati	226
Shermuhammad AMONOV, Abdulhaq RAHIMI. Alisher Navoiy mustazodiga bog‘langan muxammas haqida	229
Zilola AMONOVA, Shahlola SAFAROVA. “Farhod va Shirin” dostonidagi na’t boblarning manbalari va badiiyati	235
Abdulhamid QURBONOV. Badiiy matn va tasviriy vositalar mutanosibligi	242
Muqaddas TOJIBOYEVA. Abdulla Qodiriy romanlarida Alisher Navoiyga izdoshlik masalalari xususida	248
Orzigul HAMROYEVA. Radifning bayt kompozitsiyasidagi o‘rni	252

Ma'rifat RAJABOVA. Xalq maydon kulgi san'ati belgilarining Navoiy ijodidagi ko'rinishlari	256
Nodira SOATOVA. "Farhod va Shirin" dostoni – an'ana takomili, taraqqiysi hamda sintezi sifatida	260
Umida RASULOVA. "Alisher Navoiy" romanida obraz poetikasi	266
Marg'uba ABDULLAYEVA. Yetti sayyora: badiiy talqin va ilmiy dunyoqarash	269
Sohiba UMAROVA. Suyuma G'aniyeva – navoiyshunos	273
Zuhra MAMADALIYEVA. Alisher Navoiy "Xamsa"sida mirrix obrazining majoziylik xususiyatlari	277
Aziz RAJABIY. Alisher Navoiy g'azallarining ohang jilolari (Yunus Rajabiy musiqiy merosi misolida)	282
Zarif QUVONOV. "Hayrat ul-abror"ning yangi tadqiqatlari xususida	286
Farruxbek ABDALIYEV, Gulnoza OSMANOVA. "Xamsa"da "kampir" obrazi talqini	290
Nafisa RAXMANOVA. Ramziy-majoziy obrazlar ta'vili haqida mulohazalar	293
Kamola ULUG'MURODOVA. Navoiy nazmida Layli obrazining badiiy talqini	299
Mavluda ORTIQOVA. Alisher Navoiyning "Nasoyim ul-muhabbat" asarida valiylarga xos sifatlar talqini	303
Jamila EISAR. Alisher Navoiyning she'riyatida oyina timsolining talqini ("G'aroyib us-sig'ar misolida")	308
Azizbek TOSHPO'LATOV. Alisher Navoiyga izdoshlik: Ahmad Tabibiy taxmislari	313
Sevara PARMONOVA. Tasavvufiy tazkiralari va Alisher Navoiy asarlarida Ibrohim Adham nomining zikr etilishi	318
III SHO'BA. ALISHER NAVOIY ASARLARINING MANBALARI VA MATNIY TADQIQI SECTION III. SOURCES AND TEXTUAL RESEARCH OF ALISHER NAVAI'S WORKS	
Dilnavoz YUSUPOVA, Umedullo MAHMUDOV. Alisher Navoiyning "Munshaoti Abdulloh Marvorid"dan o'rin olgan forsiy maktublari xususida	323
Manzar ABDULXAYROV. Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostoni tabdillari tahlili	330
Dr. Farhad RAHIMI. Senglah Sözlüğünün Feraği Düzeltmeleri ve Feraği'den Yanlış ktarmaları Üzerine	335
Gholamreza RAZMI. Özbekistan'da yayimlanmış iki Hayretü'l-ebrar'in tashih edilmiş metnindeki hatalarin sebeplerine bir bakiş	352
Altay NOORULLAH. Navoiy asarlarida tinish belgilarining yanglish ishlatilishi	365

Sevda BEHESHTI. Navai's Poetry as Reflected in Miniature Paintings (A study of Illustrated manuscripts preserved in Iranian collections)	376
Oysara MADALIYEVA. Alisher Navoiyning dastlabki ikki devoni Hamid Sulaymon nigohida	384
Dr. Siyamek HÜSSEYINALIZADE (Ergin Avşar). Amîr Alî Şîr Nevaî'nin şiirlerinde Şamanlığa aid Terimler ve ritüeller	395
Ozoda TOJIBOYEVA. Parij kulliyotidagi "Favoyid ul-kibar"ning matniy xususiyatlari	407
Husnigul JO'RAYEVA. Husayn Boyqaro – Husayniy adabiy merosining O'zbekistonda o'rganilishi	412
Dilnoza RUSTAMOVA. Alisher Navoiy toshbosma devonlaridagi ayrim g'azallar matnining qo'lyozma nusxalar bilan qiyosi	417
Erfan ESHGHÎNOUR. Fâni Divanındaki Avnî Divanından Tercüme Olunmuş Şiirler Üzerine	423
Lochinbek AHMADALIYEV. Po'latjon Qayyumiy tazkiralarda Alisher Navoiy faoliyatining yoritilishi	433
Dilnavoz SATTOROVA. Navoiy g'azallariga Sa'diy taxmislari	438
IV SHO'BA. ALISHER NAVOIY ASARLARINING XORIJIY TILLARGA TARJIMASI VA CHET ELLARDA O'RGANILISHI SECTION IV. TRANSLATION OF ALISHER NAVA'I'S WORKS INTO FOREIGN LANGUAGES AND STUDY ABROAD	
Hulkar HAMROYEVA, Shahlo NARALIYEVA, Ozodaxon MUSAYEVA. Qozog'istonda Mir Alisher Navoiy ijodining o'rganilishi	444
Abdulhay SOBIROV, Zamira DJURABAYEVA. "Muhokamat ul- lug'atayn" – turkiy xalqlar leksikasining so'nmas bulog'i	451
Münevver TEKCAN, Serpil Yazıcı ŞAHİN. Muhakamat al-lughatayn's literary and academic aspects.	455
Бермет ЗАКИРОВА, Дамилова НУРИЙЛА. Алишер Навоинин чыгармаларындагы тилдик каражаттар аркылуу студенттин кеп маданиятын өстүрүү	462
Nishonboy XUSANOV. "Hayrat ul-abror"dagi teonimlarning semantik va badiiy xususiyatlari	468
Mardon RAHMATOV. Qo'shma fe'l komponentlari inversiyasi	472
Rashid ZOHID. Hayot – firoq manzili	478
Shahlo HOJIYEVA. Alisher Navoiy badiiy kashfiyotlari – Cho'lpon estetik tafakkuri yangilanishi omili	482
Mo'minjon SULAYMONOV. Alisher Navoiy davrida isiriq solinganmi?	488
Abdumurod TILAVOV. Alisher Navoiy ma'naviy merosi va zamonaviy ta'lim	492
Nilufar RASULOVA. Alisher Navoiyning boqiy merosi jahon tillarida	497
Ozodaxon MUSAYEVA, Gulchehra SULTONOVA. "Muhokamat ul- lug'atayn" asaridagi turkiy fe'llar va omonim so'zlar tahlili	502

Iroda ISHONXANOVA. Alisher Navoiy hayoti va ijodining “Литература” darsliklarida aks etishi	505
Shahlo NARALIYEVA, Farrux ABDALIYEV. Hazrat Navoiy ijodida nutq madaniyati	514
АШИРОВА Т.К., КАРАЕВА Н.О., ЗАКИРОВА Б.А. Алишер Навоинин чыгармаларын санарип платформалар аркылуу жайылтуу	518
Dilorom YULDASHEVA, Shahlo NARALIYEVA. Alisher Navoiyning didaktik qarashlari	523
Komiljon ABDULLAYEV. Ta’lim tizimi bosqichlarida Alisher Navoiy hayoti va ijodini o’rgatishda fanlararo integratsiyadan foydalanish	527
Gulnoza YULDASHEVA, Sevinch UBAYDULLAYEVA. “Lison ut-tayr” dostonining ayrim morfemik xususiyatlari tahlili	531
Feruza DJUMANIYAZOVA. Alisher Navoiy ijodida milliy etnosport o’yinlari	534
Hamida JURAQOBILOVA. O’zbek she’riy matnlaridagi kognitiv metaforalarning fransuz tilida ifodalanishi	539
Abdug’ani NASRIDDINOV. Navoiyshunoslikda yangicha yondashuv	544
TEZISLAR ADABIYOTSHUNOSLIK	
AHMADOVA Shohsanam. Hofiz Xorazmiy va Alisher Navoiy ijodida zohid obrazi tasviri	550
ABDURAIMOVA Xafiza. Alisher Navoiy g’azaliyotida Doro obrazi talqinlari	553
ALIYEVA Sevinch. Anbiyolar haqidagi manbalarda Iso payg’ambar obrazi tasviri	556
ALMARDONOVA Aziza. Alisher Navoiy tarji’bandlarida dunyo ramzi	561
DEHQONOV Akramjon. Bir g’azal sharhi	564
DOLIMOV Shokir. «Hayrat ul-abror» dostoni sharhining rus tiliga tarjimai xususida	567
GAFUROVA Shaxnoza. Navoiy me’rojnoma baytlarida qo’llangan badiiy san’atlar	569
IBOTOVA Madina. Alisher Navoiy g’azallarida jon va ishq munosabatining badiiy ifodasi	572
MEYLIYEV Xudoyberdi. Navoiy va zamondoshlari asarlarida Mirzo Mironshoh saroyi adabiy muhiti va shoir Lutfulloh Nishopuriy ijodiy faoliyatining yoritilishi	576
MUQUMOVA Surayyo. “Nasoyim ul-muhabbat”: ism, xosiyat va xususiyat	579
NASRULLAYEV Elmurod, SIROJIDDINOVA Sevinch. Xalq og’zaki ijodida Navoiy timsoli talqini	581

NURULLAYEVA Hulkaroy, MAMADALIYEVA Madina. Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asarini o’qitish bo’yicha ayrim mulohazalar	584
OLIMJONOV Davronbek. “Boburnoma” asarida tarixiy shaxslar tavsifi (Alisher Navoiy shaxsi misolida)	587
PARDAYEVA Nigora, PIRNAZAROVA Barno. Navoiy lirikasida kichik lirik janrlar	589
SHOMURODOV San’at. Alisher Navoiy va Husayn Boyqaro munosabatlari isajon sulton talqinida	593
TO’XTAMURATOV Furqat. Alisher Navoiy g’azaliga Muhsiniy tatabbu’si	596
TURDIYEVA Maftuna. “Layli va Majnun” dostonlari kompozitsiyasidagi ba’zi farqli jihatlar	599
UMAROVA Dildor. Alisher Navoiy asarlarida sukut go’zalligi ifodasi	602
UMAROV Sardorbek. Ma’rifatning haqiqati – hayratdir	604
YANGIBOYEV Shavkat. Ito haqida	607
TILSHUNOSLIK	
YULDASHEVA Dilorom. Alisher Navoiy asarlarida rang-tus ifodalovchi birliklar	611
AXMADJANOVA Malika. Alisher Navoiy va o’zbek tilining boyitilishi: ilmiy metodlar va uslublar	613
AKBAROVA Zulfizargul. Alisher Navoiy asarlarida qo’llanilgan antonimlik hosil qiluvchi “Ahl” komponentli lug’aviy birliklar tahlili	617
YUSUPOVA Dildora. Alisher Navoiy asarlarida qimmatbaho tosh nomlari	619
MUNDARIJA	622